

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI XORAZM MADANIYATINING ASOSIY BOSQICHLARI

Yusupov Shakir Xaitbayevich.

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Urganch davlat universiteti katta o'qituvchisi.

Xayitboyev Elbek Shokir o'g'li. Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix yo'nalishi 3-kurs talabasi.

umid_abdalov@mail.ru

Annotation: Ushbu maqola Xorazm vohasi madaniyati tarixining Amir Temur va temuriylar davrigagi asosiy va muhim bosqichlarga bag'ishlangan bo'lib, Sohibqiron tomonidan Xorazm hududlarining Movarounnahrga qo'shib olinishi jarayonlari, markazlashgan sultanat tarkibiga uyg'unlashuv vohadagi shahar madaniyatining rivojlanishini to'xtatmaganligini ochib bergen.

Kalit so'zlar: Xorazm madaniyati, Amir Temur va temuriylar, Chingizzon, Chig'atoy ulusi, "Yaso", Qo'ng'iroq So'filari, Oltin O'rda, "Zafarnoma", Xiva, Hazorasp, Xonqa, Kat, Vazir – Devkesgan, Adoq (Oqqal'a), Shemaxa qal'a, Butantov, O'zboy.

KIRISH. XIV–XV asrlarda Xorazm madaniyati tarixi ichki va tashqi siyosiy voqealarga bog'liq tarzda kechgan. Uzoq yillar mobaynida Xorazm vohasi xalqlari madaniyati tarixining Amir Temur va temuriylar davri chuqr va atroficha o'rganilishi masalasi mutaxassislar e'tiboridan chetda qoldi va maxsus tadqiqot obyekt sifatida tanlab olinib, tadqiq etilmadi. O'tgan davrlar mobaynida nafaqat Xorazm, balki Sohibqironning markazlashgan davlati hududlaridagi chekka viloyatlar va elatlar tarixi bo'yicha ham chuqr obyektiv tadqiqotlar olib borilmagan edi.

Amir Temur va temuriylarning Xorazmdagi siyosatini anglash uchun shu davrdagi tarixga nazar tashlash kerak. Lekin bunda tarixiy haqiqat mukammal o'rganilishi shart.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Chingizzon yurishlaridan so'ng (1219–1221) Xorazm davlati majburan ikki qismga: janubi Chig'atoy ulusiga (Xiva, Kat), shimoli-g'arbiy qismi esa Jo'ji ulusiga (Oltin O'rda davlati) ajratildi. "Yaso" tartibiga ko'ra hatto davlat poytaxti Gurganjning bir qismi chig'atoylarga tegishli bo'lган. Bu keyinchalik Amir Temur va yarim mustaqil Xorazm davlatini tashkil qilgan Qo'ng'iroq So'filari orasida nizolarni keltirib

chiqargan. Bu holat aslida Oltin O'rda davlatidagi siyosiy inqirozlarga taalluqli jarayon sifatida bo'y ko'rsatdi va nizoning avj olishida Oltin O'rdaning ta'siri va qutqusi naqadar ko'lAMDOR bo'lganligi manbalar va tarixiy adabiyotlarda muayyan darajada o'z aksini topgan.

XIV asrning 60-yillarida Jo'ji ulusi (Oltin O'rda)da har xil siyosiy guruhlar orasida keskin kurashlar avj oldi. Bu holat xon Jonibekning (1357-yil) va Berdibekning (1359-yil) sirli o'limidan so'ng yanada avjiga chiqdi. Oltin O'rda davlati shu davrdan boshlab siyosiy jihatdan ancha zaiflashdi. Shundan foydalangan Xorazmning mahalliy hokimlaridan yarim mustaqil Qo'ng'iroq So'filari siyosat maydoniga chiqib keldilar. Shu vaqtdan boshlab Xorazmda Oltin O'rda xonlari nomidan tangalarni zARB qilish to'xtadi va "ismi noma'lum" chaqa-pullar chiqarila boshlandi²¹.

So'nggi marta Gurganjda Oltin O'rda xonlari nomidan tanga 1361-yilda Xizirxon nomidan chiqarilgan. Keyinchalik shu kabi anonim tamg'alangan tangalar 1380-yilda To'xtamish nomidan Xorazmda zARB qilingan. Bu To'xtamishning Xorazmni Amir Temurga qarshi gij-gijlashi va hukmron sulolaga homiylik va'da qilishi kezlarida sodir bo'lgan. Garchi uning o'zi nochor ahvolga tushib, yaralanib, saltanatidan ayrilib, butunlay singan holatida Amir Temurdan bir necha marta madad olganligi, Sohibqiron ko'magida o'z hokimiyatini qo'lga kiritganligi manbalardan ma'lum. Ammo bu siyovlar uning o'z valine'matiga qarshi isyonga qo'l urishiga monelik qila olmadi. Shuningdek, Amir Temurning ko'p vaqtin aynan To'xtamishga qarshi yurish qilish, uni jilovlab, esini kiritib qo'yish yo'lida sarf bo'ldi. Aks holda voqealar jarayoni butunlay boshqacha kechishi, saltanat hududi esa yanada salmoqliroq bo'lishi mumkin edi.

1360–1370-yillarda yangi tipdagi (shakldagi) anonim tangalar zARB qilinib, ularagi yozuvlarda xonlar ismi qayd etilmasdan, o'rniga xulafoi roshidin – to'g'ri yo'ldan yurgan xalifalar, ya'ni avvalgi to'rtta xalifa nomi zikr qilingan va "podsholik xudodan" degan yozuvlar bitilgan.

Bu kabi tangalarning ilk turi, nusxasi hijriy 762, 772, milodiy 1360–1361 va 1370–1371-yillarda zARB qilingan. Bu holatni qadimshunos olim M.E.Masson Xorazmda Oltin O'rda xonlaridan yarim mustaqil Qo'ng'iroq So'filarining taxtga kelishi bilan bog'laydi²². Keyin uning fikrini rossiyalik tangashunos va

²¹ Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода // Нумизматика и Эпиграфика. Том IV. – М., 1965. – С. 219.

²² Массон М.Е. Монетный клад XIV в. из Термеза // Бюллетень САГУ. 1929. Вып 18. – № 7. – С.53-68.

qadimshunoslar G.A.Fedorov-Davidov²³ va B.I.Vaynberglar ham tasdiqlaydilar²⁴. Ular ham bu sulola vakillarini “yarim mustaqil” noiblar (podsho) qatoriga qo’shadilar. Lekin boshqa bir rus qadimshunosi S.A.Yanina ularning fikriga qarshi chiqdi va “Qo’ng’iroq So’filari yarim mustaqil holatda tarix sahnasiga chiqmagan”, degan qat’iy fikrni ilgari surdi²⁵.

Lekin shuni aytish joizki, Xorazmda “yangidan” shakllangan sulola vakillarining tarix maydoniga chiqishi shu davrdagi Oltin O’rda davlatidagi siyosiy inqiroz, parokandalik va Xorazmdagi tarixiy holat bilan aloqador bo’lganligi tarixiy haqiqatga zid emas. Chunki XIV asrda Xorazmnii O’zbekxon vakili Qutlug Temurdan (1312–1336) so’ng kuchli noib boshqarmadi. Saroyda ham murakkab holat-xon vorislari to’ntarishlari avj oldi. Shundan foydalanmoqchi bo’lgan mahalliy zodagonlar, savdogar, amir va ruhoniylar o’z foydalari hisobiga ma’qul tushgan Qo’ng’iroq So’filari vakillarini davlat boshqaruviga ko’targanligi mantiqqa zid emas²⁶.

Shu tarixiy vaziyatda, ya’ni XIV asrning 60-70-yillarida Xorazmda Oltin O’rdadan “bo’linishga” harakat kuchaydi. Bu davrda Oltin O’rda xonlari tomonidan hukmdorning nomi zikr qilinmagan (anonim) ko’plab chaqa, tangalar zarb qilingan.

XIV asrning 60-yillarida hanuz chig’atoylar boshqarayotgan Movarounnahrda ham siyosiy kuchlar o’rtasidagi kurashlar avj oldi. O’zaro nizolardan so’ng Amir Temur 1370-yilda hokimiyatni to’liq egalladi. Bulardan tashqari, shu asrning 80-yillarida Oltin O’rdaga chegaradosh davlatlar siyosiy hayotida ham katta o’zgarishlar bo’layotgan edi. Ko’chmanchilar davlatining shimolida Dmitriy Donskoy (1350–1389) boshchiligidagi rus knyazliklari Moskva atrofiga birlasha boshlagan, Movarounnahrda esa Amir Temur yangi qudratli sultanat tuzgan edi.

Lekin Xorazmda Qo’ng’iroq So’filarning noo’rin harakatlari Amir Temurga ko’p tashvishlar keltirdi. Hijriy 768, milodiy 1367-yilda Husayn So’fi chingiziylar tarafidan Shimoli-g’arbiy Xorazmdan bo’lingan Chig’atoj ulusiga tegishli Kat va Xiva shaharlarini zabit etdi. Ilgari qayd etib o’tilganidek, dastlab Amir Temur So’filarni tinch yo’l bilan bo’ysundirishga harakat qilib ko’rdi. Bu fikrni manbalar ham tasdiqlaydi.

²³ Федоров-Давыдов Г.А. Из истории политической жизни Хорезма XIV в. // КСИЭ. Вып. 30. – М., 1958. – С. 93-99.

²⁴ Вайнберг Б.И. К истории Кунградских Суфи // МХЭ. Вып. 4. – М., 1960. – С. 104-114.

²⁵ Янина С.А. Золотые анонимные монеты Хорезма 60-70 х гг. XIV в. в собрании Государственного исторического музея // Нумизматический сборник. Часть. 4. Вып. 2. – М., 1972. – С. 62.

²⁶ Кдырниязов М.-Ш. Культура Хорезма XIII–XIV вв. // АДД. – Самарканд, 2005. – С. 31.

Nizomiddin Shomiyning yozishicha, Amir Temur Xorazm hokimini tinch yo‘l bilan bo‘ysundirishga urinib ko‘rdi va 1371-yilning mart oyida Gurganjga Alafa Tovachi boshchiligidagi elchilar yubordi. U bilan Xorazm hokimi Husayn So‘fini do‘stlik va birdamlik munosabatlari o‘rnatishga da’vat etuvchi noma ham yuboradi. Biroq Husayn So‘fi Amir Temurga ijobiy javob bermay: “Bu viloyatni (Janubiy Xorazm – Kat, Xiva shaharlari) men qilich yordamida qo‘lga kiritdim, shuning uchun uni faqat qurol yordamida tortib olishlari mumkin”, qabilida javob bergan²⁷.

Amir Temurning masalani tinch yo‘l bilan hal etishga qaratilgan bu xattiharakatini Sharafuddin Ali Yazdiy ham qayd etgan. “Zafarnoma”da “Xivak va Kot (zakoti) Chig‘otoy ulusug‘a taalluq turur va eyasi yo‘q jihatdan sen olur erding. Daxl qilmag‘aysen va bizga taaluq kishiga topshurg‘aysenkim, do‘slug‘ aromizda bo‘lg‘ay”²⁸. Lekin shundan keyin yuborilgan ikkinchi elchi Shayxulislom Jamoladdin Keshiyni esa Husayn So‘fi “qal‘aga soldi” – (zindonga) tashladi. Bu Amir Temurning Xorazmga urush boshlashiga olib kelgan. Achinarli tomoni, qadimdan boshlab “elchiga o‘lim yo‘q”, degan aqida amal qilgan bo‘lsa-da, ko‘philik hukmdorlar shu tartibga rioya qilishmagan. Buni keyingi davrlarda ham kuzatish mumkin. Vaholanki, bir hukmdordan boshqasiga elchi o‘z ixtiyori bilan tashrif buyurmeydi va faqat xojasining irodasini yetkazishga vakil etib tayinlanadi, xolos. Elchilarsiz muloqot esa o‘rta asrlar sharoitida imkoniyatdan tashqari holat hisoblanar edi. Husayn So‘fining Amir Temur elchisiga munosabati adolatsizlikdan boshqa narsa emas edi. Ilgariroq Alouddin Muhammad Xorazmshohning elchilarni ketma-ket qatl etishi mo‘g‘ullarning yurishiga turtki bo‘lib, butun boshli bir ulkan sultanatning qulashiga olib kelgan edi. Ammo tarixdan saboq olgan, undan xulosa chiqargan hukmdorlar juda ham kam uchraydi.

Tarixiy adabiyotlarda qayd qilinganidek, Sohibqiron 1372–1388-yillar oralig‘ida Xorazmga besh marta yurish qildi, Gurganjni bosib oldi va So‘filer sulolasiga bu yerda tugatildi. Poytaxt–shahar vayron qilindi, ko‘plab olimlar, hunarmandlar Movarounnahrga ko‘chirildi²⁹. Bu o‘rinda ham Husayn So‘fining sarkashligi, vaziyatga aql ko‘zi bilan baho berishdagi xatosi, manmanligi va elchiga nisbatan shafqatsiz munosabati, oxir-oqibat, butun bir sulolaning faoliyatiga xotima yasab, hokimiyat uzangisining boy berilishiga olib keldi.

Garchi ungacha bo‘lgan davrda jo‘jiylar (Oltin O‘rda) tarafdarlari bo‘lgan mahalliy so‘filer sulolasiga, Janubiy Xorazmdagi chig‘atoylar vorislari orasidagi noo‘rin harakatlarga qaramasdan, XIV–XV asrlarda hokimiyatni egallab, Xorazm

²⁷ Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Том.1. – М. – Л., 1939. – С. 516.

²⁸ Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Тошкент, 1997. – Б. 72.

²⁹ МИТТ. Том1. – С. 524; Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома... – Б.119.

madaniyati tarixining o‘ziga xos bosqichini yaratganliklarini ham e’tirof etmoq joiz. Ammo Farasman, ko‘pchilik tarixchilar uni xoinlikda nohaq ayblasalar-da, Aleksandr Makedonskiy bilan til topishib, Xorazmning mustaqilligini saqlab qolishga tuyassar bo‘lganligi fakti so‘filarga saboq bo‘lmadi. Agar sarkashlik qilinmasdan, Amir Temur bilan til topishishga harakat bo‘lganda edi, hozir biz Xorazmning butunlay o‘zgacha tarixiga guvoh bo‘lishimiz mumkin bo‘lar edi.

Xullas, so‘filar asos solgan Xorazm madaniyati tarixining birinchi bosqichi XIV asr boshidan to shu asrning 70-yillarigacha cho‘ziladi. Bu bosqich Xorazm madaniyatining rivojlanishi bilan xarakterlanadi. O‘rta Osiyo tarixi mo‘g‘ul hukmdorlari tasarrufida kechgan davrda Xorazm Oltin O‘rdaning boy viloyati bo‘lgan. XIV asr boshlarida Xorazm vohasi iqtisodiy va ijtimoiy hayotida biroz jonlanish kuzatilgan. Oltin O‘rda noibi Qutlug‘ Temur va uning rafiqasi To‘rabekxonim Urganchda bir necha yirik maqbara va minora qurdiradi. XIII asrning oxiri – XIV asr boshlarida mahalliy aholi O‘rda tasarrufida bo‘lgani bilan, madaniy, siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lishga harakat qildi. Bu bosqichda viloyatning qadimiy shaharsozlik madaniyati rivojlanib bordi, hunarmandchilik an’analarining yangi davr madaniy yutuqlari bilan chambarchas bog‘lanishi davom etdi. Mo‘g‘ul hukmronligi davridagi qisqa inqiroz keyingi madaniy-ma’naviy hayotdagi o‘sishga olib keldi. Oltin O‘rda davrida shimoli-g‘arbiy Orolbo‘yi shaharlari madaniyat markazlariga aylandi.

Jumladan, bu davr bo‘yicha rimliklar Plano Karpini, aka-uka Pololar XIII asrning 40-60-yillarida Oltin O‘rdada, O‘rta Osiyo hududida bo‘lganida Organso nomi bilan Urganchni eslab o‘tadlar³⁰. Ularning ma’lumotini fransuz qiroli Lyudovik IX elchisi Andre Londjumo, italiyalik Djovanni Marinololar Orolbo‘yi shaharlari to‘g‘risidagi ma’lumotlari bilan to‘ldiradilar. Yevropalik va boshqa xorijiy mualliflar qalamiga mansub manbalarda joy va shaxs nomlari haddan ortiq buzilib, o‘zlarining tillariga moslashtirilgan holda talqin qilingan. Bu hol aslida butun o‘rta asrlar tarixini o‘rganishni ancha murakkablashtiradi. Afsuski, ayrim toponim, etnonim va shaxs nomlari, ayrim davlatlar va qavmlar, shaharlar nomlari asli mahalliy aholi tomonidan qanday nomlanganligini biz avlodlar hech qachon bilolmasak ham kerak. Shunday bo‘lsa-da, mavzu doirasida o‘rganilayotgan hududga doir yevropaliklar ma’lumotlarini arab-fors tillarida yozgan Ibn Battuta, Shihobiddin Fazlulloh al Umariy, Ibn Arabshoh o‘z axborotlari bilan to‘ldiradilar³¹.

Mualliflar o‘z axborotlarida Xorazm vohasi madaniyatining markazi bo‘lgan Urganch “chiroyli turk shaharlaridan bo‘lib, unda katta bozor, keng ko‘chalar,

³⁰ Плано Карпини Дж. История монголов. – М., 1957. – С. 46, 209; Книга Марко Поло. – М., 1955. – С. 20.

³¹ Становление и расцвет Золотой Орды. – Казань, 2011. – С. 129, 174.

alohida ajralib turuvchi keng qurilishlar bor”, degan ma’lumotlarni keltiradilar. Bulardan tashqari, Urganchda ko‘plab namozgohlar, masjid-madrasalar, minoralar, burj-u borlar, shifoxonalar va boshqa qurilish inshootlari mavjud bo‘lgan.

XIV–XV asrlar Xorazm madaniyati tarixining asosiy va muhim bosqichi XIV asrning 70-yillaridan keyin boshlanib, bu alohida davr, ya’ni Amir Temur va temuriylar davri sifatida izohlanadi. Amir Temur davrida tuzilgan kuchli markazlashgan davlat, qaytadan qurilgan shaharlar, ajoyib inshootlar, hunarmandchilik va savdoning gullab-yashnaganligi va nihoyat uning davrida o‘rnatilgan tinchlik bu davr madaniy taraqqiyotining asosiy omillari hisoblanadi. Shu davrda nafaqat Xorazm, balki Sohibqironning markazlashgan davlati hududlaridagi chekka viloyatlar ham taraqqiy qilgan edi.

XIV asrning 70-yillaridan – XV asr oxirlarigacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oluvchi ikkinchi bosqichda Xorazm vohasi hududlarida, jumladan, janubiy va shimoli-g‘arbiy yerlarida yangi iqtisodiy, madaniy rivojlanishlar yuz berdi.

Sohibqironning Xorazmga harbiy harakatlarida Xorazmning janubiy hududlari mohiyatan talafot ko‘rmadi. Birinchi yurishida (1372-yil iyul) Amir Temur Kotni egallab, so‘ngra Gurganjni qamal qildi. Ammo Husaynning vafot etganligi munosabati bilan taxt vorisi Yusuf So‘fi sulk so‘radi, Ali Yazdiy ta’biri bilan aytganda: “va aroda kishi solib yarash so‘zini ayturdi. Amir Temur sulk tuzib, Samarqandga qaytdi”³².

Yusuf So‘fi Amir Temur qaytib ketgandan so‘ng yana Kot shahrini bosib oladi, Sohibqironga, u bilan tuzilgan sulk shartlariga itoat etishdan bosh tortadi. Bunga javobon Sohibqiron hijriy 774-yil ramazon oyida (milodiy 1373-yil yanvar) Qizilqum orqali Xorazmga ikkinchi yurishini amalga oshiradi. Lekin mazkur yurish Buxoro atrofida to‘xtatiladi. Chunki Xorazm amirlaridan biri Hasan Surij Amir Temurni urush harakatlarini to‘xtatishga ko‘ndiradi va “Amir kumush tanga tovon pulini olib, shuning evaziga xorazmliklarga aziyat yetkazmay Samarqandga qaytadi”³³. Ko‘rib o‘tilgan ikkala yurishlari davrida Sohibqiron faqat Janubiy Xorazm hududlarini, ya’ni azaldan chig‘atoylarga tegishli bo‘lgan Kat va Xiva atroflarini Movarounnahrga qo‘shib oldi. Amir Temurning Xorazmga uchinchi yurishi hijriy 777-yil bahorda (1375-yilning mart oyida) sodir bo‘ldi. Lekin bu harbiy harakat ham oxiriga yetkazilmay to‘xtatildi³⁴. Ushbu yurishlar davrida Xorazm shaharlari va elatlarining talafot ko‘rganligi to‘g‘risida manbalarda

³² Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома... – Б. -74-75; Темур ва Улугбек даври тарихи. – Тошкент, 1996. – Б. 79.

³³ O‘scha adabiyot. – Б. 75.

³⁴ Ko‘rsatilgan asar. – Б. 79.

ma'lumotlar ko'rsatilmagan. Shunga asoslanib, ta'kidlash mumkinki, viloyatning janubiy hududlari Amir Temur askarlari tarafidan jiddiy ziyon ko'rmagan.

Temuriylar davri tarixi moddiy izlarini o'rganish bo'yicha Xorazmning shimoli-g'arbiy hududlarida olib borgan arxeologik izlanishlar ancha samarali natijalar beradi. Mo'g'ul bosqinchilari yurishlari davrida Amudaryo suvining Daryoliq va O'zboy orqali Kaspiy dengizi va Balxan tog'i tarafga oqishi bu hududda katta maydonda sug'orish inshootlari qurilishiga, dehqonchilik va hunarmandchilik markazlarining vujudga kelishiga asos bo'lgan.

Yuqorida eslaganimizdek, eronlik Hamdulloh Qazviniy (XIV asr) Jayhun (Amudaryo) oldinlari Sharq dengizi (Orol)ga quyganligi, mo'g'ullar boshqaruvi davrida o'z suvini Kaspiy dengiziga burGANligi haqida ma'lumot qoldirgan. Lekin Abulg'ozixon bergen ma'lumotga ko'ra, keyinchalik daryo o'zanini o'zgartirib Sariqamish pasttekisligidan Orolga qaytadan quyadigan bo'lgan. Bu voqeа 1573-yili sodir bo'lgan. Ya'ni shimoli-g'arbiy Xorazm hududlarida Amir Temur va temuriylar davrida Urganchdan g'arba qarab obod va xalqi tinch yashagan hudud vujudga kelgan. Faqat poytaxt nima sabadan aynan XVI asrning so'nggi choragida Xivaga ko'chganligi masalasi yana oydinlashtirishni talab etadi. Chunki ilmiy adabiyotlarda bunga Amudaryo o'zanining o'zgarishi sabab qilib keltiriladi. Agar bu jiddiy va hal qiluvchi sabab bo'ladigan bo'lsa, ilgari ham bunday holat ro'y berib turganligi manbalardan anglashiladi. Ammo bu hol ilgariroq poytaxtning ko'chirilishiga olib kelmagan. Shunday ekan, bu masala yanada jiddiyroq manbashunoslik va arxeologik tadqiqotlarni talab etadi.

NATIJALAR. Xorazmning g'arbiy hududlaridagi geomorfologik, arxeologik-topografik tadqiqotlar Vazir – Devkesgan, Adoq (Oqqal'a), Shemaxa qal'a, Butantov, O'zboy va Sariqamish atroflari temuriylar davrida shahar, qishloqlar ancha ko'p joylashgan hududlardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Arxeologik va manbashunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar Ustyurt tekisligida joylashgan o'rta asr shaharlari Shemaxaqaqal'a (Qumkent), Adoq (Oqqal'a), Vazirdan tortib, temuriylar davridagi sug'orish inshootlari Gurlan kanali (Bag'dod, Bag'dodik), Eski O'kuz (Amudaryo), Asaf O'kuz kabi daryo tarmoqlari viloyatning shimoli-g'arbiy elatlari (Xuroson) bilan aloqalarida muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi.

Y.G'.G'ulomov bu davr haqida "Janubiy Xorazmning sug'oriladigan yerlari va Xiva, Hazorasp, Xonqa, Kat kabi shaharlari Oltin O'rda va temuriylar davrida ham yashab keldi", "bu shaharlар o'sha vaqtida Xorazmning iqtisodiy va madaniy jihatdan umuman yuksalishini ifodalar edi", "Kat va Xivada saqlangan ayrim arxitektura yodgorliklari, hatto bu vaqtida madaniy hayotning bir qancha

yuksalgaligidan ham dalolat beradi”, deya fikr bildirgan³⁵. Moddiy dalillarga tayangan Sovet davri arxeologining fikrlari e’tiborga molik, chunki o’sha davr mafkurasi nuqtai nazaridan jiddiy asosga ega bo’lmasdan turib, bunaqa xulosa berishga hech kim jur’at etolmasdi.

MUHOKAMA. Xorazmning shimoli-g‘arbiy chegaralarida XV–XVI asrda qurilgan qal’a-shaharlarning Xuroson yo‘lida joylashishi va temuriylar davrida ulardan savdo-sotiq, harbiy maqsadlarda foydalanilgani bu joylarda madaniy yuksalishning davomiyligini ko‘rsatadi. Bu joydagi qishloq qurilishlari o‘rta asrdagi Xorazm shaharlariga xos kungurali devorlar bilan himoyalangan. Devorlari, o‘z navbatida, kuzatuv minoralari – burjlar va shinaklar bilan mustahkamlangan. Bular, shubhasiz, temuriylar davrida ham qurilish ishlari davom etib, G‘arbiy Xorazmda ham yirik shaharlar bo‘lgani va ularning faoliyatidan dalolat beradi³⁶.

Bularning barchasi Xorazmning temuriylar davri madaniyatiga taalluqli bo‘lib, voha aholisining markaziy hududlar bilan yaqin aloqada bo‘lganini ko‘rsatadi. Shubhasiz, Sariqamishning moddiy madaniyati, xo‘jalik hayoti Xorazmning XV–XVI asrlar shahar madaniyati rivojlangan hududlari bilan o‘zar oloqada bo‘lganligini ko‘rsatadi. So‘nggi o‘rta asrlar manbalarida bu hudud sharqdan (Movarounnahr va Xorazmdan) g‘arbgaga (Xuroson va g‘arbgaga) yo‘nalgan mamlakatlararo va qit’alararo savdo yo‘li tizimida hamda siyosiy voqealarda muhim rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi.

XULOSA. Amir Temur va temuriylar davrida qayta tiklash kabi ibratlari siyosatni Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq davlatlari misolida ham ko‘rsa bo‘ladi. Sohibqiron farmoni bilan Ozarbayjonning Baylokan shahri yonida Barlos kanali, Xurosonning Murg‘ob vohasi bosh irrigatsiya tarmoqlari bo‘lgan kanallar qayta tiklandi. Bunday obodonchilik ishlari Marv vohasida, Ozarbayjonda, Eronda, Xorazmda, ya’ni temuriylarning chekka, chegara hududlarida ham qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilikning, savdo-sotiqning rivojlanishiga va shu orqali shahar madaniyatining o‘sishiga sharoit yaratdi.

1388-yili Amir Temur tomonidan Xorazm hududlarining Movarounnahrga qo‘sib olinishi jarayonlari, markazlashgan sultanat tarkibiga uyg‘unlashuv vohadagi shahar madaniyatining rivojlanishini to‘xtatmadı. Aksincha, yangi savdo yo‘llari bilan birga eski karvon yo‘llari ham harakatda bo‘ldi, yangi inshootlar qurildi, hunarmandchilik rivojlandi. Amir Temur davlati tarkibiga o‘tgan Xorazm

³⁵Гуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 184.

³⁶ Толстов С.П. По следам древнекорезмийской цивилизации. – М.: Изд-во МГУ, 1948. – С. 312-314; Вайнберг Б.И. Новые материалы к истории западных районов Хорезма в XIV-XVI вв. // Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. – Нукус: Каракалпакстан, 1989. – С. 122-137.

shaharlarida osoyishta hayot o‘rnatilib, o‘zaro ichki urushlarga barham berildi va natijada iqtisodiy o‘sish jarayonlari qaytdan jonlana boshladi. Tarixiy manbalar ma’lumotlari bilan birga, arxeologik tadqiqotlar natijalari ham Amir Temur va temuriylar davrida Hazorasp, Xiva, Kat, Gurganj (Toshqal’a), Vazir (Devkesgan) kabi shaharlarning mudofaa devorlari, aholi turarjoylari va boshqa inshootlar qayta qurilganini tasdiqlaydi. Shemaxaqal’a, Adoq, Misdahkon, Toshqal’a, Oqqal’a, Puljoydagi Amir Temur va temuriylar davriga oid arxeologik topilmalar bu davrda madaniy yuksalish yuz bergenligini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Вайнберг Б.И. К истории Кунградских Суфи // МХЭ. Вып. 4. – М., 1960.
2. Вайнберг Б.И. Новые материалы к истории западных районов Хорезма в XIV-XVI вв. // Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. – Нукус: Каракалпакстан, 1989.
3. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Тошкент: Фан, 1959.
4. Қдырниязов М.-Ш. Культура Хорезма XIII–XIV вв. // АДД. – Самарканд, 2005.
5. Книга Марко Поло. – М., 1955.
6. Массон М.Е. Монетный клад XIV в. из Термеза // Бюллетең САГУ. 1929. Вып 18. – № 7.
7. Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Том.1. – М. – Л., 1939.
8. Плано Карпини Дж. История монголов. – М., 1957.
9. Становление и расцвет Золотой Орды. – Казань, 2011.
10. Темур ва Улуғбек даври тарихи. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.
11. Толстов С.П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: Изд-во МГУ, 1948.
12. Федоров-Давыдов Г.А. Из истории политической жизни Хорезма XIV в. // КСИЭ. Вып. 30. – М., 1958.
13. Федоров-Давыдов Г.А. Нумизматика Хорезма золотоордынского периода // Нумизматика и Эпиграфика. Том IV. – М., 1965.
14. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. – Тошкент, 1997.

15. Янина С.А. Золотые анонимные монеты Хорезма 60-70 х гг. XIV в. в собрании Государственного исторического музея // Нумизматический сборник. Часть. 4. Вып. 2. – М., 1972.



"Innovations in Science and Technologies"